




2022- yilning yanvar-iyunida Toshkent viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyunida Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 42 905,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 6,1 %ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 111,5 %ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent viloyatining qo'shgan hissasi 11,0 %ga yetdi.






2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da
	2021- yil	2022- yil	
I. YAHM, jami	36 270,0	42 905,1	106,1
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	34 942,6	41 170,0	106,1
mahsulotlarga sof soliqlar	1 327,4	1 735,1	107,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	34 942,6	41 170,0	106,1
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	7 326,1	8 034,6	101,1
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	18 823,6	22 702,3	107,6
sanoat	17 024,3	20 277,4	107,2
qurilish	1 799,3	2 424,9	110,6
xizmatlar	8 792,9	10 433,1	107,0
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 080,0	2 607,7	111,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 671,4	1 962,2	111,2
boshqa xizmat tarmoqlari	5 041,5	5 863,2	103,7



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 14 538,7 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 7,4 %ga yuqoridir.

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o‘sish sur‘atlari




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,0 %ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,0 %ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 19,5 %ni, sanoat tarmog‘i 49,3 %ni, qurilish 5,9 %ni va xizmatlar sohasi 25,3 %ni tashkil qildi.




2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan %da)

	2021- yil	2022- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,3	96,0
mahsulotlarga sof soliqlar	3,7	4,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	21,0	19,5
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	53,8	55,2
sanoat	48,7	49,3
qurilish	5,1	5,9
xizmatlar	25,2	25,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,0	6,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,8	4,8
boshqa xizmat tarmoqlari	14,4	14,2




2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan %da)

2021- yil



2022- yil





● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar



YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 101,1 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 19,5 %), sanoatda – 107,2 % (49,3 %), qurilishda – 110,6 % (5,9 %), xizmatlar sohasida – 107,0 %ni (25,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'ati savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,6 % (6,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 111,2 % (4,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,7 %dan (14,2 %) iborat bo'ldi.


2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)





YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,2 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,03 f.p.), sanoat tarmog'i – 3,4 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 3,6 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,5 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 1,1 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 1,7 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 2,8 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,3 f.p.)ga ko'paydi


2022- yilning yanvar-iyunida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan %da)





2022- yilning yanvar-iyunida YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 111,5 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda – 121,9 % va sanoatda – 111,1 % qayd etildi.

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 45,1 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-iyunida – 46,9 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

